



# SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Sirdaryo viloyatida  
kichik tadbirkorlik  
2022- yil yanvar- sentabr**




Dastlabki ma'lumotlar


# Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik




Yanvar- sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi, % da



2020- yil



2021- yil



2022- yil

2022- yilning yanvar- sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining **YAHM**dagi ulushi **66,4** % ni, 2021- yilning yanvar- sentabrda 67,2 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **18,0** birlikni tashkil qildi.

2022- yilning yanvar-sentabrda 1641 tadan ortiq yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8,9 foizga kam demakdir.

## 2022- yilning yanvar- sentabrda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Savdo



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda **511** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **499** ta sanoatda **265** ta, qurilishda **94** ta, yashash va ovqatlanishda **63** ta, tashish va saqlashda **36** ta tashkil etilgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

2022- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

97,1



Sanoat

32,3



Qurilish

75,4



Investitsiya

74,5



Savdo

92,3



Xizmatlar

51,1



Eksport

64,5



Import

66,6



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

14699




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

1641

2022- yilning yanvar-sentabrda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

## Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



# Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



2022-yilning 1- oktabr holatiga ko'ra iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, % da

## Savdo

36,0 %



## Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

16,4 %



## Sanoat

15,4 %



## Qurilish

10,8 %



## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

6,5 %



## Axborot va aloqa

1,4 %



## Tashish va saqlash

3,8 %




## Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

1,1 %



## Boshqa faoliyat turlari


8,6 %



2020- y. 2021- y. 2022- y.

1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

Hududlar bo'yicha 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar




## Hududlar bo'yicha yanvar-sentabrda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



■ 2021- y. yanvar- sentabr ■ 2022- y. yanvar- sentabr


## 2022- yil yanvar- sentabrda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da

2022- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Guliston shahri – 20,8 %, Sirdaryo tumani – 14,0 %, Sardoba tumani - 12,2 %, Oqoltin tumani – 9,5 %, Boyovut tumani – 8,7 %, Guliston tumani – 8,6 %, Mirzaobod tumani – 7,7 %, Sayxunobod tumani – 6,5 % hissalariga to'g'ri keldi.



# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

## Yanvar- sentabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Ma'lumot uchun: 2022- yil yanvar- sentabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:


Savdoda  
511 ta

Qishloq,  
o'rmon va  
baliqchilik  
xo'jaligida  
499 ta

Sanoatda  
265 ta

Qurilishda  
94 ta

## Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida



2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 16,5 birlikni tashkil etdi.




Sirdaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 1- oktabr holatiga ko'ra\*



2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)\*

2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Guliston shahrida 41,2 birlik, Yangiyer shahrida 21,9 birlik, Shirin shaharda 17,7 birlik, Mirzaobod tumanida 16,6 birlik, Oqoltin tumanida 16,4 birlik, Sirdaryo tumanida 15,6 birlikni tashkil etgan.



\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida

2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Guliston shaharda 41,2 birlik, Yangiyer shaharda 21,9 birlik, Shirin shaharda 17,7 birlik, Mirzaobod tumanida 16,6 birlik, Oqoltin tumanida 16,4 birlik, Sirdaryo tumanida 15,6 birlik, Guliston tumanida esa 14,5 birlikni tashkil etdi.


Sirdaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra\*

**Eng yuqori ko'rsatkich**  
Guliston shaharda  
- 41,2 birlik.

**O'rtacha ko'rsatkich**  
Sirdaryo tumanida  
- 15,6 birlik.

**Past ko'rsatkich**  
Xovos tumanida  
- 7,6 birlik.

2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari sonini eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda \*



\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti


2022- yil yanvar- sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 146,0 million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 64,5 % ini tashkil etdi.



### Yanvar- sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi




### 2022- yilning yanvar- sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da



2022- yil yanvar- sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Sirin shahrida – 100,0 %, Xovos tumanida – 99,9 %, Sayxunobod tumanida – 99,9 %, Yangiyer shahrida – 99,9 %, Sardoba tumanida – 99,3 %, Boyovut tumanida – 68,0 % va Sirdaryo tumanida 49,8 % ni, eng past ko'rsatkich Guliston tumanida – 0,6 % ni tashkil etdi.

## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi




Yanvar- sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi

2022- yil yanvar- sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **148,4** million AQSH dollarini yoki umumiy importning **66,6** % ni tashkil etdi.



2022- yilning yanvar- sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da




2022- yil yanvar- sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Sayxunobod tumanida – 100,0 %, Sardoba tumanida – 100,0 %, Sirin shahrida – 99,9 %, Yangiyer shahrida – 99,8 %, Oqoltin tumanida 93,5 % ni tashkil etdi. Eng past ko'rsatkich Sirdaryo tumanida – 40,1 % ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




2022- yilning yanvar- sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi

2022- yil yanvar- sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **2714,4** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Sirdaryo (892,4 mlrd. so'm), Guliston shahri (526,7 mlrd. so'm), Yangiyer shahrida (349,5 mlrd. so'm), Sayxunobod (243,4 mlrd. so'm) va Mirzaobod (173,6 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Shirin shahrida (17,0 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi




2022- yil yanvar- sentabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **32,3** % ni tashkil etdi.

## 2022- yil yanvar- sentabr holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Sardoba tumani (100,0%), Xovos tumani (77,8 %), Guliston shahri (66,0 %), Yangiyer shahri (65,4 %), Sayxunobod tumani (58,5 %), Mirzaobod tumani (50,1 %) va Sirdaryo tumani (48,4 %) tashkil etdi. Sirin shahrida (0,5%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati




Yanvar- sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi

2022- yil yanvar- sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **3015,2** mlrd. soʻmni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **92,3** % ni tashkil etib, oʻsish surʻati 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **106,9** % ni tashkil qildi.

## 2022- yilning yanvar- sentabrda hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va oʻsish surʻati


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Guliston shahri (**1092,2** mlrd. soʻm), Sirdaryo (**611,0** mlrd. soʻm), Yangiyer shahri (**301,2** mlrd. soʻm), Mirzaobod tumani (**221,5** mlrd. soʻm), Guliston (**152,0** mlrd. soʻm), va Oqoltin (**142,1** mlrd. soʻm), tumanlari hissasiga toʻgʻri keldi.



■ Hajm, mlrd. soʻm

—●— Oʻsish surʻati, %

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




2022- yil yanvar- sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **1558,4** milliard soʻmni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **75,4 %** ni tashkil etdi. Oʻsish surʻati 2021- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan **85,6 %** ni tashkil qildi.

## 2022- yilning yanvar- sentabrida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va oʻsish surʻati


### Yanvar- sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp bajarilgan qurilish ishlari hajmi Guliston shahri (475,0 mlrd. soʻm), Mirzaobod (382,4 mlrd. soʻm), Sirdaryo (117,2 mlrd. soʻm), Yangiyer shahri (106,1 mlrd. soʻm), Xovos (105,8 mlrd. soʻm), Guliston (96,6 mlrd. soʻm), hamda Boyovut (88,0 mlrd. soʻm) tumanlarida qayd etildi.



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati


Yanvar- sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi



2022- yil yanvar- sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **1886,0** mlrd. soʻmlik xizmatlar koʻrsatildi yoki koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **51,1%** ni tashkil qildi va oʻsish surʻati 2021- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan **109,9** % ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp xizmatlar hajmi Guliston shahri (519,3 mlrd. soʻm), Sirdaryo (359,9 mlrd. soʻm), Yangiyer shahri (221,0 mlrd. soʻm), Boyovut (126,5 mlrd. soʻm), Mirzaobod (126,3 mlrd. soʻm), Xovos (118,5 mlrd. soʻm) va Guliston (109,2 mlrd. soʻm) tumanlari hissasiga toʻgʻri keldi.

2022- yilning yanvar- sentabrida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va oʻsish surʻati




# 2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi ko'rsatkichlari


2022- yilning yanvar- sentabrda kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:




Yuk tashishda



Yuk aylanmasida



Yo'lovchi tashishda



Yo'lovchi aylanmasida

2022- yil yanvar- sentabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 91,6 % ni tashkil etdi. 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 102,5 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar- sentabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 81,8 % ni tashkil etgan bo'lib, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 102,8 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar- sentabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 95,0 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 103,1 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar- sentabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 97,4 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 103,3 % ni tashkil qildi.




# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil III chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma da **501** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 156 (31,1%) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 296 (59,1 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 49 (9,8 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – 40,1 % (201 ta), xizmatlar sohasida – 25,5 % (128 ta), sanoatda – 12,4 % (62 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 11,2 % (56 ta), qurilishda – 10,8 % (54 ta) ni tashkil etdi.

## 2022- yil III chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da




# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Guliston shahri (140 ta), Sirdaryo (72 ta), Yangiyer shahri (47 ta), Boyovut (45 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


2022- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da



# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari




## 2022- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2022- yilning III choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlarda – 35,9 %, savdoda – 32,2 % ni, sanoat sohasida 30,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 30,6 % ni, qurilish sohasida – 25,9 % ni, sanoat sohasida 15,3 % ni tashkil etdi.

## 2022- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2022- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlarda 57,0 % ni, savdoda 50,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 51,8 % ni, qurilishda – 46,3 % ni tashkil etdi.



# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari




## 2022- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da

	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	43,6	43,5	12,9
Band bo'lganlar soni	22,5	68,8	8,7
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	45,7	45,1	9,2
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	31,6	54,6	13,8
Raqobat muhiti*	42,0	50,5	7,5
	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	53,9	39,7	6,4
Band bo'lganlar soni	26,9	68,9	4,2
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	47,9	46,7	5,4
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	38,5	54,9	6,6
Raqobat muhiti*	46,1	49,1	4,8

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari



2022- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2022- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da

